

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimi xalqaro tizim bo'yicha AQSh moliyaviy ko'magida baholanadi



Foto: O'ZA

Joriy yilning noyabr oyida O'zbekistonning 70ta umumta'lim maktablaridan 2,8 ming nafar o'quvchi o'zbek-amerika loyihasi doirasida boshlang'ich sinfda o'qish va matematika ko'nikmalarini baholash bo'yicha tadqiqotlarda ishtirok etadi.

14 noyabr kuni Toshkent shahridagi 238-umumta'lim maktabida O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov hamda AQShning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Daniel Rozenblyum ishtirokida EGRA va EGMA pilot loyihasining

ochilish marosimi [bo'lib o'tdi](#).

EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan AQShning Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Mazkur loyiha 2019 yil 28 sentyabrda XTV va USAID o'rtasida 50 million dollarga imzolangan besh yillik rivojlanish maqsadlari to'g'risidagi bitimning birinchi tarkibiy qismidir.

EGRA va EGMA tadqiqotlari mamlakatning 12 viloyatida 7 tilda hamda ingliz tilida olib borilishi rejalashtirilgan. Pilot tadqiqotlar ikki hafta davomida 70ta maktabda o'tkaziladi hamda 1,4 mingta 2-sinf va 1,4 mingta 4-sinf o'quvchilarini qamrab oladi.

Sinovning asosiy maqsadi har bir til uchun vositalarni sinab ko'rish, ma'lumotlarni yig'ish, shuningdek ushbu tillarda imtihon topshirish amaliyotini sinab ko'rishdan iborat.

Test o'tkazish uchun 5 nafar imtihon oluvchilardan tarkib topgan guruhlar tashkil etildi.

2020 yilning may oyida O'zbekiston maktablarida to'liq tadqiqotlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Tadqiqotlar 10 kun davomida tasodifiy tanlangan 940 ta maktabda o'tkaziladi. Mazkur jarayonga 11,28 mingta 2-sinf va 4-sinf o'quvchilari qamrab olinadi. Sinovlarda har bir sinfda 12 nafar o'quvchi ishtirok etadi.

EGRA va EGMA tadqiqotlarining yakuniy natijalari 2020 yilning avgust oyida e'lon qilinadi.

Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov bugungi kunga qadar o'quvchilar bilimini baholashning obektiv tizimi yo'qligini

ta'kidladi:

– Hozirda Xalq ta'limi vazirligi xalqaro tajriba va tadqiqotlar asosida bu kabi tizimlarni joriy etish ustida ishlamoqda. Ilk bora xalqaro tizim asosida o'quvchilar bilimi baholanyapti. Ushbu tadqiqotlar O'zbekiston natijalarini boshqa davlat ma'lumotlari bilan taqqoslash va ularni hal etishning eng yaxshi usullarini topish imkonini beradi. Shu munosabat bilan direktor va o'qituvchilarni baholashning xolisligini ta'minlashga chaqiraman. Chunki ma'lumotlar ta'lim tizimidagi muammolarni aniqlashga yordam beradi, – deydi vazir.

AQShning O'zbekistondagi elchisi Daniel Rozenblyumning ta'kidlashicha, EGRA va EGMA boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligi va matematika bo'yicha ko'nikmalarini baholovchi oddiy, arzon va kuchli vositadir:

“Men “baholash” so'zi bekorga tanlanmaganligini ta'kidlamoqchiman. Bu vosita bolaning bilimi, o'qituvchining dars berishi yoki direktorning maktabni boshqaruv ko'nikmalarini tekshirmaydi. Shuningdek, jarayonda o'tish yoki yomon baho bo'lmaydi. Tibbiyot xodimlari bemorga muolaja belgilash, ko'rikdan o'tkazishdan avval uni tekshiradi. EGRA va EGMA esa boshlang'ich sinflarda o'qish hamda matematika bo'yicha ko'nikmalariga baho beradi. Baholash natijalariga ko'ra yangi o'quv dasturlari, o'qitish uslubi va yondashuvlar O'zbekiston yoshlarining yaxshi natija ko'rsatishi uchun moslashtiriladi”.